



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2025- yil
yanvar

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi zamonaviy iqtisodiyotda muhim o'rin tutib, aholi bandligini oshirish, turmush sifatini yaxshilash va resurslardan samarali foydalanishga hissa qo'shadi. Globalashuv va texnologiyaning jadal rivojlanishi bilan xizmatlar innovatsiyalar, samaradorlikni oshirish va iqtisodiy barqarorlik uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda. Xizmatlar sohasi ijtimoiy infratuzilmani mustahkamlashga, davlat, biznes va aholi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi, shuningdek, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari o'sishini rag'batlantiradi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2025- yil yanvar)

69,8



**Xizmatlar sohasidagi
korxona va
tashkilotlar
ulushi, % da**

727,1



**Aholi jon
boshiga
xizmatlar
hajmi, ming
so'mda**

64,1




**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlikning
ulushi, % da**



**Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'mda, –
2 116,8**

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Soni, birlikda



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar

(1- fevral holatiga ko'ra)

2025- y.

69,8 %

Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi, % da

63,8 %

2021- y.

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

(1-fevral holatiga ko'ra)

77,3 %


2025- y.

Jami yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi, % da

2021- y.

60,4 %

Soni, birlikda.



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari

64,1 %
(1- fevral holatiga ko'ra)
2025- y.



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi, % da

2021- y.



59,3 %

Soni, birlikda

2025

12 455

2024

12 811

2023

14 736

2022

13 477

2021

11 781

Yillar

Soni, birlikda

2025

244

2024

217

2023

215

2022

238

2021

245

Yillar

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari (1-fevral holatiga ko'ra)

2025- y.



76,5 %

Jami yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soniga nisbatan ulushi, % da



59,7 %


2021- y.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar)


 Hajmi, mlrd. so'mda

 O'sishi, % da



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi

(2025- yil yanvar)



¹⁾ Grafikda va keyingi o'rinlarda 2021-2024- y.y. yanvar oyi uchun aniqlik kiritilgan ma'lumotlar keltirilgan, 2024- yil yanvar oyi hajmi va 2025- yil yanvar oyi uchun ma'lumotlar yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda shakllantirilgan.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2025- yil yanvar)


Shahar va tumanlar nomi	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Surxondaryo viloyati ¹⁾	2 116,8	100,0	110,7
Termiz sh	423,2	20,0	111,0
tumanlar:			
Angor	61,9	2,9	109,1
Bandixon	33,3	1,6	108,0
Boysun	52,1	2,5	110,5
Denov	195,7	9,2	110,9
Jarqo'rg'on	85,8	4,1	110,2
Qiziriq	54,2	2,6	108,3
Qumqo'rg'on	93,7	4,4	110,3
Muzrabot	66,1	3,1	110,4
Oltinsoy	58,6	2,8	108,6
Sariosiyo	89,1	4,2	110,4
Termiz	67,1	3,2	110,7
Uzun	61,6	2,9	108,6
Sherobod	80,4	3,8	110,5
Sho'rchi	78,8	3,7	110,3

¹⁾ Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda

Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar)




Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2025- yil yanvar)



Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar)



Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik (2025- yil yanvar)



Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar, xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha Mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi (MST) ga ko'ra muvofiqlashtirildi.


Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2025- yil yanvar)

Xizmat turlarining nomi	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	2 116,8	100,0	110,7
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	106,1	5,0	115,1
Moliyaviy xizmatlar	321,1	15,2	107,6
Transport xizmatlari	293,1	13,8	113,2
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	258,8	12,2	111,7
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	475,4	22,5	110,0
Savdo xizmatlari	501,4	23,7	110,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	43,6	2,1	110,5
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	86,5	4,1	124,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	38,3	1,8	97,7
Ijara xizmatlari	35,1	1,7	104,0
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	56,2	2,7	109,9
Shaxsiy xizmatlar	62,2	2,9	109,3
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	19,3	0,9	103,0
Boshqa xizmatlar	78,4	3,7	115,1

¹⁾ Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi (yanvar) ¹⁾

■ Hajmi, mlrd. so'mda
● O'sishi (kamayishi), % da



2025-yilning yanvar oyida xizmatlarning umumiy hajmida (yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda) yashash va ovqatlanish xizmatlarining ulushi **22,5** foizni tashkil etdi. Ularning tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **83,5** %.

Shahar va tumanlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2025- yil yanvar)



¹⁾ Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda ○ O'sishi, % da

Transport xizmatlari dinamikasi (yanvar) ¹⁾


■ Hajmi, mlrd. so'mda
● O'sishi (kamayishi), % da



Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **88,3** foiz.

Termiz shahrida transport xizmatlari hajmi **44,7** mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan mazkur shaharda transport xizmatlarining o'sishi **3,2** foiz darajasida qayd etildi.


Shahar va tumanlar kesimida transport xizmatlari (2025- yil yanvar)




¹⁾ Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda

Savdo xizmatlari dinamikasi (yanvar) ¹⁾

2025- yilning yanvar oyida chakana savdoning ulushi (yashirin iqtisodiyotni qo'shgan holda) umumiy savdo xizmatlarining yarmidan ziyod qismini, ya'ni **23,7 %** ni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar kesimida savdo xizmatlari (2025- yil yanvar)




¹⁾ Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda


Hajmi, mlrd. so'mda

O'sishi, % da


Moliyaviy xizmatlar dinamikasi (yanvar)



Shahar va tumanlar kesimida moliyaviy xizmatlar (2025- yil yanvar, mlrd. so'mda)



Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2025- yil yanvar, % da)




Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, **2025-yil yanvar** oyida **95,4** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Termiz shahrining ulushi **45,2** foizni yoki **145,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. **2024- yil yanvar** oyiga nisbatan ushbu shaharda yuqori o'sish sur'ati **108,0** foiz darajasida qayd etildi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi


(yanvar)



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2025- yil yanvar** oyidagi ulushi **95,0** foizni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar (2025- yil yanvar, mlrd. so'mda)



Shahar va tumanlar orasida ta'lim sohasidagi eng katta hajm Termiz shahriga to'g'ri keladi. **2025-yilning yanvar** oyi davomida mazkur shahar-da ushbu turdagi xizmatlar hajmi **41,6** mlrd so'mni yoki ta'lim sohasidagi xizmatlar umumiy hajmi-ning **51,9** foizini tashkil etdi.




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi (yanvar) ¹⁾



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2025-yilning yanvar** oyidagi ulushi **83,1 %** ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2025- yil yanvar)




1) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda

Hajmi, mlrd. so'mda

O'sishi, % da


Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi

(yanvar) ¹⁾



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining **29,1** foizini tashkil etadi.

Shahar va tumanlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2025- yil yanvar)



1) Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda


◆ O'sishi, % da

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalari xizmatlarining hisssasi salmoqli bo'lib, **2025- yil yanvar** oyidagi ulushi **1,8** foizni tashkil etdi. Boshqa sog'liqni saqlash xizmatlari **86,0** foizni, shifokorlar amaliyoti va stomatologiya sohasidagi xizmatlar **10,0** foizni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar)



Shahar va tumanlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2025- yil yanvar)




¹⁾ Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik

baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda


Hajmi, mlrd. so'mda + O'sish sur'ati, % da

Ijara xizmatlari dinamikasi

(yanvar)¹⁾



Shahar va tumanlar kesimida ijara xizmatlari (2025- yil yanvar, mlrd. so'mda)



2025- yilning yanvar oyida ijara xizmatlari hajmi **35,1** mlrd. so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida yengil avtomobillar va yengil avtotransport vositalarining ijarasi bo'yicha xizmatlarning salmoqli qismi – **53,2** foizni tashkil etadi.

¹⁾ Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi


(yanvar) ¹⁾



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **83,3** foizni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar

(2025- yil yanvar)




¹⁾ Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda

■ Hajmi, mlrd. so'mda 🏠 O'sishi, % da

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar)



Shahar va tumanlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2025- yil yanvar, mlrd. so'mda)



2025- yilning yanvar oyida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **19,3** mlrd so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Termiz shahrining ulushi **41,3** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi. **Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (shartnoma) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.